

## 67. Ikki xonali sonlarni ayirish

## Tayanch so'zlar:

**xona birliklari  
kamayuvchi  
ayriluvchi  
ayirma**



## **Sehrli kvadratni to‘ldiring.**

2	9	4
		3
6		8



1. Quruvchilar qadimgi minoraning devorini asl holiga keltirishyapti. Buning uchun ularga 97 dona bezakli g'isht kerak bo'ladi. Agar 46 dona g'isht keltirilgan bo'lsa, ustalarga yana nechta g'isht yetmayapti?

Page 17



Ikkita son bir-biridan xona birliklari bo'yicha ayiriladi.

$$\textcolor{red}{5}7 - \textcolor{red}{3}1 = \textcolor{blue}{2}6$$



2. Xona birliklari yordamida berilgan ifodalarning qiymatini toping.

$$6 \text{ o'nl. } 5 \text{ birl.} - 5 \text{ o'nl. } 3 \text{ birl.} = \boxed{1} \text{ o'nl. } \boxed{2} \text{ birl.}$$

$$9 \text{ o'nl. } 5 \text{ birl.} - 5 \text{ o'nl. } 4 \text{ birl.} = \boxed{4} \text{ o'nl. } \boxed{1} \text{ birl.}$$



- ### 3. Hisoblang.

56 - 42

$$\begin{array}{r} 85 \\ - 14 \\ \hline \end{array}$$

$$1\ 56 - 25$$

$$\begin{array}{r} 95 \\ - 45 \\ \hline \end{array}$$

91-10

26-13



- ## 4. Taqqoslang.

$$85 - 14 \boxed{\phantom{0}} 63 + 13$$

$$\begin{array}{r} 95 - 13 \square 81 + 12 \\ \hline \end{array}$$

$$66 - 13 \quad 16 + 37$$

$$\begin{array}{r} 76 - 43 \\ \hline 13 + 52 \end{array}$$

## 67. Ikki xonali sonlarni ayirish



5. Toshkentda dinozavrlar bog'i ochildi. Unda 48 ta qadimgi hayvonlar maketi borligi ma'lum bo'ldi. Agar o'txo'rlar soni 24 ta bo'lsa, yirtqichlar soni qancha bo'lган?

100 100 100 100 100 100 100 100 100 100



6. Doirachalarni xona birliklari yozuvi bilan almashtiring.



=  o'nl.  birl.



= o'nl. birl.

Xona birliklarini doirachalar bilan almashting.

2 o'nl. 7 birl.

4 o'nl. 2 birl.



- #### **7. Bo'sh katakchalarni to'ldiring.**

$$64 = 60 + 4 \quad 32 = \boxed{\phantom{0}} + \boxed{\phantom{0}} \quad 48 = \boxed{\phantom{0}} + \boxed{\phantom{0}}$$
$$\boxed{\phantom{0}} = 30 + 4 \quad \boxed{\phantom{0}} = 10 + 8 \quad \boxed{\phantom{0}} = 50 + 5$$

- #### **8. Turli xalqlar sonlarni turlicha yozganlar.**

Nomerlash – bu sonlarni yozish usuli.

Zamonaviy nomerlash: 1, 2, 3, 4, ...

Quyida berilgan nomerlashlardan qaysi birida keyingi keladigan son qanday ko'rinishda bo'lishini bilish mumkin?

Xitoycha nomerlash usuli	Mayya hindularining nomerlash usuli
一 二 三 四 五 六	•   ..   ...   ....   —   •